



DASTLABKI TERGOV VA SURISHTIRUVDA PROKUROR NAZORATI, MUAMMO VA YECHIM

Xoliqov Axror Akmal o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20066830>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 03-may 2026 yil
Ma'qullandi: 05-may 2026 yil
Nashr qilindi: 07-may 2026 yil

KEY WORDS

prokuror nazorati, dastlabki tergov, surishtiruv, jinoyat protsessi, tergovchi mustaqilligi, sud nazorati, qonuniylik, protsessual qarorlar, inson huquqlari, huquqni muhofaza qilish organlari, islohotlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada dastlabki tergov va surishtiruv jarayonlarida prokuror nazoratining huquqiy mohiyati, uning ahamiyati hamda amaliyotdagi o'rnini keng tahlil qilinadi. Xususan, tergovchi va prokuror o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, nazoratning chegaralari, tergovchining protsessual mustaqilligi va unga ta'sir etuvchi omillar yoritib beriladi. Shuningdek, jinoyat-protsessual faoliyatda yuzaga kelayotgan muammolar, jumladan, byurokratik to'siqlar, vakolatlarining nomutanosib taqsimlanishi va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, prokuror nazoratini takomillashtirish, tergov organlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda shaxs huquq va erkinliklarini yanada ishonchli himoya qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va yechimlar ilgari suriladi.

Bugungi kunda jinoyat-protsessual faoliyatni takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish bosqichi, xususan dastlabki tergov va surishtiruv jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu bosqichda jinoyatning barcha holatlari aniqlanadi, dalillar to'planadi va keyingi sud muhokamasining asoslari shakllantiriladi.

Dastlabki tergov va surishtiruv jarayonlarida qonuniylikni ta'minlashda prokuror nazorati muhim o'rin tutadi. Prokuror ushbu bosqichda tergov organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirib, qonun buzilishlarining oldini olish, protsessual qarorlarning qonuniy va asosli bo'lishini ta'minlash, shuningdek, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifalarini bajaradi. Shu bilan birga, prokuror nazorati tergov faoliyatining samaradorligini oshirish va odil sudlovga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.[1]

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, dastlabki tergov va surishtiruv jarayonlarida prokuror nazoratining amalga oshirilishi bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Jumladan,

tergovchining protsessual mustaqilligi masalasi, nazoratning chegaralari, vakolatlarining nomutanosib taqsimlanishi hamda ayrim hollarda byurokratik to'siqlarning mavjudligi ushbu tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi dastlabki tergov va surishtiruvda prokuror nazoratining nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va yechimlar ishlab chiqishdan iborat.

Muhokama va natijalar

Tergovchi, surishtiruvchi, prokuror va sudya jinoyat ishi bo'yicha barcha holatlarni puxta, har tomonlama, to'liq va xolis o'rganish asosida, qonun va huquqiy ong talablariga amal qilgan holda, o'z ichki ishonchiga tayangan tarzda dalillarga baho beradi. U jinoyat ishi yuzasidan tergov rejalarini va versiyalarini mustaqil ishlab chiqadi hamda tergov va boshqa protsessual harakatlarning ketma-ketligini belgilaydi. Tergov davomida yuzaga keladigan masalalarni hal eta olish tergovchining o'z vazifalarini samarali bajarishining muhim sharti hisoblanadi. Tanlov imkoniyatining cheklanishi esa jinoyat ishini yuritishga mas'ul shaxslarning o'z protsessual majburiyatlarini to'laqonli ado eta olmasligiga olib keladi.[2]

Amaldagi qonunchilikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tergovchining protsessual mustaqilligini ta'minlovchi bir qator muhim omillar mavjud. Jumladan, dalillarga ichki ishonch asosida baho berish, protsessual qarorlarni mustaqil qabul qilish (ayrim hollarda sud yoki prokuror roziligi talab etilishidan tashqari), prokuror ko'rsatmalariga nisbatan e'tiroz bildirib yuqori turuvchi prokurorga murojaat qilish huquqi, turli tashkilotlar va shaxslarga majburiy topshiriqlar berish vakolati hamda protsessual harakatlar uchun javobgarlikning mavjudligi shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, jinoyat-protsessual qonunchilikda "tergovchining protsessual mustaqilligi" tushunchasining aniq ta'rifi berilmaganligi sababli, uning mohiyati yuzasidan yagona yondashuv shakllanmagan. Ayrim olimlar nazoratning mavjudligi mustaqillikka salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'kidlasa, boshqalar ayrim protsessual normalar tergovchining erkin faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir qilishini qayd etadi. Xususan, tergov yakunida prokuror tomonidan ayblov xulosasining tasdiqlanishi yoki ishni qo'shimcha tergovga qaytarish vakolati bunga misol bo'la oladi.[3]

Tergovchi jinoyat protsessining institutsional tuzilishidan kelib chiqib, to'liq mustaqil faoliyat yurita olmaydi. Prokuror va sud nazorati uning faoliyatini muvozanatlab turadi hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Shu sababli tergovchining mustaqilligi bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi: u tashqi ta'sirlardan holi bo'lishi, shuningdek o'z faoliyati doirasida bevosita nazorat qilmaydigan yuqori turuvchi rahbarlardan ham nisbatan mustaqil bo'lishi lozim.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, hatto mustaqil tergov organi tashkil etilgan taqdirda ham, bo'ysunuvga asoslangan tizim mavjud ekan, to'liq mustaqillikni ta'minlash murakkab masala bo'lib qoladi. Bundan tashqari, tergovchining kasbiy nufuzi moddiy-texnik ta'minot, ish yuklamasi va mehnat sharoitlari bilan chambarchas bog'liq. Ko'p hollarda ortiqcha ish hajmi, byurokratik to'siqlar va yuqori organlarning roziligiga bog'liqlik tergov samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Prokuror nazorati esa alohida davlat faoliyati turi bo'lib, uni faqat prokuratura organlari amalga oshiradi. Ushbu nazorat davlat nomidan olib borilib, qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishini ta'minlashga qaratilgan. Prokuror nafaqat tergov ustidan nazoratni amalga oshiradi,

balki jinoyat protsessining barcha bosqichlarida faol ishtirok etib, uning uzluksizligini ta'minlaydi.

Amaldagi tartibga ko'ra, prokuror tergovchining qarorlarini tekshiradi, shikoyatlarni ko'rib chiqadi va zarur hollarda ularni bekor qilish vakolatiga ega. Shu bilan birga, tergovchi prokuror qarorlaridan norozi bo'lsa, yuqori turuvchi prokurorga murojaat qilish huquqiga ega bo'lsa-da, yakuniy qaror yana prokuror tomonidan qabul qilinadi. Bu esa protsessda mustaqil uchinchi tomon ishtirokining cheklanganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, prokuror va tergovchi faoliyati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular umumiy maqsad — jinoyat ishlarini qonuniy, asosli va adolatli hal etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular o'rtasidagi vakolatlar muvozanati, tergovchining mustaqilligi va prokuror nazoratining chegaralari masalasi bugungi kunda ham dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.[4]

Mazkur holat, avvalo, fuqarolarning prokuratura organlariga bo'lgan ishonchining pasayishiga olib keladi. Sud muhokamasi yakunlanib, tomonlarning so'nggi nutqlari boshlanganida esa, prokuror kutilmaganda ayblanuvchiga nisbatan muayyan modda bo'yicha aniq jazo muddatini talab qilib, jarayon ishtirokchilarini hayratda qoldiradi. Buning sababi shundaki, yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan ayblov xulosasi tasdiqlangandan so'ng, quyi bo'g'indagi prokurorlar amalda undan chetga chiqish imkoniga ega bo'lmaydi, hatto bunga ehtiyoj sezilgan taqdirda ham.

Agar ayblov xulosasi allaqachon prokuror tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, sud qatnashayotgan yordamchi prokuror unga nisbatan muqobil nuqtai nazarni ilgari sura olmaydi. Shu bois, ayblov xulosasini tasdiqlash vakolatini prokuratura organlaridan olib tashlash masalasi bugungi kunda dolzarb muhokamalardan biriga aylangan.

Dastlabki tergov bosqichida sud nazorati nafaqat jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiladi, balki isbotlash jarayonining qonuniy va asosli kechishini ham kafolatlaydi. Shu orqali u odil sudlovni ta'minlashga hissa qo'shadi hamda sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga zamin yaratadi.[5]

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikka ko'ra, ishni sudga qadar yuritish jarayonida bir qator protsessual harakatlar sud nazorati ostida amalga oshiriladi. Jumladan, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llash va ularning muddatini uzaytirish bilan bog'liq masalalar, pasport amal qilishini to'xtatish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, murdani ekskumatsiya qilish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, tintuv va olib qo'yish o'tkazish, telekommunikatsiya vositalarini nazorat qilish kabi harakatlar shular jumlasidandir. Shuningdek, prokurorning amnistiya asosida ishni tugatish yoki rad etish haqidagi iltimosnomalari ham sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Biroq jinoyat ishini qo'zg'atish yoki rad etish, ayrim tergov harakatlarining qonuniyligini ta'minlash kabi masalalarda sud nazorati deyarli qo'llanilmaydi va bu sohada asosan prokuror nazorati ustuvor hisoblanadi.

Shu bilan birga, sud nazoratining haddan tashqari kengaytirilishi ham ayrim salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Sudyaning keng vakolatlariga ega bo'lishi natijasida u nafaqat qonuniylikni nazorat qiluvchi, balki amalda tergov jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi subyektga aylanishi ehtimoli mavjud. Bu esa tergovchining protsessual mustaqilligiga putur yetkazadi, chunki u o'z qarorlarini qabul qilishda sud qarorlariga haddan tashqari bog'lanib qoladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda aynan tergov ustidan nazoratni amalga oshirgan sudya

keyinchalik o'sha ishni mazmunan ko'rib chiqadi, bu esa uning xolisligiga nisbatan shubhalar tug'ilishiga sabab bo'lishi mumkin.[6]

Amaliyotda sud nazoratining samaradorligi ham har doim yuqori emas. Masalan, ekskumatsiya yoki pochta jo'natmalarini xatlash bo'yicha sudga yuborilgan iltimosnomalar deyarli barcha holatlarda qanoatlantiriladi, rad etish hollari juda kam uchraydi. Bu esa sud ruxsati olish tartibining ko'p hollarda formal xarakter kasb etayotganini ko'rsatadi. Natijada tergovchi ortiqcha vaqt va resurs sarflashga majbur bo'ladi. Qolaversa, bunday iltimosnomalar avval prokuror tomonidan tasdiqlanishi zarur bo'lgani sababli, prokurorning ta'siri baribir saqlanib qoladi.

Ikki tomonlama nazorat — ya'ni prokuror va sud nazoratining bir vaqtda mavjudligi — ish yuritish jarayonini murakkablashtirishi, byurokratik to'siqlarni ko'paytirishi mumkin. Shu bois ayrim olimlar tergov harakatlarini amalga oshirish uchun bevosita sudga murojaat qilish, prokuror roziligini majburiy shart sifatida bekor qilish taklifini ilgari surgan bo'lsalar-da, bu masalada yagona yondashuv mavjud emas.

Yana bir muhim jihat shundaki, hozirgi tizimda dastlabki tergov bir nechta davlat organlari — prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmati tomonidan olib boriladi. Bu esa yagona mazmunga ega tergov faoliyatining turli yondashuvlarda amalga oshirilishiga olib keladi. Har bir idorada ichki nazorat tizimi ham turlicha tashkil etilgan bo'lib, bu umumiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yagona, mustaqil tergov organini tashkil etish zarurati haqida ilmiy doiralarda uzoq yillardan buyon fikrlar bildirilmoqda.[7]

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun jinoyat protsessi ishtirokchilarining vakolat va funksiyalarini aniq chegaralashga qaratilgan islohotlar zarur. Xususan, prokuror faqat nazorat funksiyasini bajarishi, tergovchi esa mustaqil protsessual faoliyat yuritishi lozim. Agar prokuror tergovchining qaroriga rozi bo'lmasa, u protest keltirishi va zarur hollarda sudga murojaat qilishi mumkin. Tergov organi rahbari esa tergovchining protsessual qarorlariga aralashmasdan, faqat tashkiliy rahbarlikni amalga oshirishi kerak. Tergovchi va prokuror o'rtasidagi kelishmovchiliklarni esa sud hal qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.[8]

Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi loyihasida jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda sud nazoratini kengaytirish masalasi muhim yo'nalishlardan biri sifatida ilgari surilgan. Mazkur tashabbusga ko'ra, jinoyat protsessida sud vakolatlari faqatgina ayblovni ko'rib chiqish bilan cheklanib qolmasdan, balki dastlabki tergov bosqichidan boshlab yanada faolroq shaklda amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

Zamonaviy jinoyat protsessi nazariyasida sudning vakolatiga kiruvchi asosiy yo'nalishlar uch guruhga ajratiladi. Birinchidan, protsessual majburlov choralarini qo'llash masalalari, ya'ni shaxsni ushlab turish, uy qamog'iga olish, tibbiyot muassasasiga joylashtirish yoki lavozimidan vaqtincha chetlashtirish kabi choralar. Ikkinchidan, ayrim tergov harakatlariga ruxsat berish, jumladan tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitish, pochta-telegraf jo'natmalarini olib qo'yish kabi harakatlar. Uchinchidan esa, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror qarorlari hamda harakatlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish kiradi.[9]

O'zbekistonda sud nazorati instituti "habeas corpus" tamoyili asosida 2008-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilgan bo'lib, dastlab u asosan qamoqqa olish kabi protsessual majburlov choralariga ruxsat berish bilan cheklangan edi. Keyingi yillarda esa uning doirasi kengayib, tergov harakatlariga sud sanksiyasi berish amaliyoti ham rivojlana

boshladi. 2017 yilda davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar natijasida tintuv o'tkazish hamda aloqa vositalarini eshitib turish kabi harakatlarga ruxsat berish vakolati ham sudlarga o'tkazildi. Shu bilan birga, jinoyat protsessi ishtirokchilarining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlarni sud tomonidan ko'rib chiqish tizimini joriy etish istiqbollari ham belgilandi.[10]

Xulosa

Shunga qaramasdan, ayrim huquqiy tushuntirishlarda sudga shikoyat qilish mexanizmlari mavjudligi qayd etilgan bo'lsa-da, amaliyotda bu institut yetarli darajada keng qo'llanilmagan. Shu bois, hozirgi islohotlar doirasida sudga shikoyat qilish tizimini kengaytirish va uni jinoyat protsessining barcha bosqichlariga tatbiq etish zarurati ta'kidlanmoqda.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, jinoyat ishini qo'zg'atishdan tortib, tergovgacha tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarigacha bo'lgan jarayonlarda fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish kafolatlari sezilarli darajada kuchayadi hamda sud nazoratining samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulanov V.V. Jinoyat sud ish yurituvda tergovchining protsessual vakolatlarini amalga oshirishda uning mustaqilligi va erkinligi masalalari.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/samostoyatelnost-i-nezavisimost-sledovatelya-pri-osuschestvlenii-protsessualnyh-polnomochiy-v-ugolovnom-sudoproizvodstve>
3. Mkrtchyan V.G. Tergovchining protsessual mustaqilligi. Huquq: tarix, nazariya, amaliyot: III Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari (Sankt-Peterburg, 2015 yil iyul). – Sankt-Peterburg: Svoyo izdatelstvo, 2015. – 144 b.
4. <https://moluch.ru/conf/law/archive/142/8441/>
5. Smirnov A.V. Rossiyada tergov hokimiyatining zamonaviy muammolari.
6. <https://center-bereg.ru/j1535.html>
7. Inog'omjonova Z.F., To'laganova G.Z. Jinoyat protsessi ishtirokchilari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuU, 2006. – 45-bet.
8. To'laganova G.Z. Dastlabki tergov bosqichida shaxs huquqlarini ta'minlash masalalari. Monografiya. – Toshkent: TDYuU, 2021. – 20-bet.
9. Voskobitova L.A. Ayblov yoki ayblovga moyillik? // Rossiya huquqining dolzarb muammolari. – 2014. – №3. – 455–462-betlar.
10. http://nbpublish.com/library_read_article.php?id=-27929
11. Kolokolov N.A. "Buyuk qarama-qarshilik": tergovchi va prokuror // Rossiya Ichki ishlar vazirligi Moskva universiteti axborotnomasi. – 2014. – №10.
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/velikoe-protivostoyanie-sledovatel-vs-prokuror>
13. Kapinus O.S. Jinoyat sud ish yurituvda prokurorning protsessual maqomi masalasiga doir // "Prokuror". – 2013. – №2.
14. <https://center-bereg.ru/j319.html>
15. Aleksandrov A.S. Dastlabki tergov qanday bo'lmasligi kerak. // Davlat va huquq.
16. <https://www.lawmix.ru/comm/1096>
17. Rustambayev M.X., Nikiforova E.N. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar. – Toshkent: TDYuU, 2005. – 363-bet.